



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHDA ILG'OR TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Tuyg'abulov Aqiloy**  
**Xamrayeva Gulora**

*Qarqolpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tuman 60-son umumiy o'rta ta'lim  
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari*


**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borishi, ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari, ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich ta'lim, metodika, ta'lim tizimi, matematika.*

Hozirda har bir maktabda ta'lim – tarbiya saramadorligini oshirish jiddiy vazifa bo'lib turibdi. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy muammoli texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borishi orqali o'z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi. Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni olib kirish “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning ikkinchi bosqich vazifalaridan biridir. Ta'lim - kelajakdagi muvaffaqiyatlar kaliti ekan, uning mahsuli sifatida bugungi o'quvchi kelajakda huquqiy-demokratik jamiyat a'zosi sifatida bu jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok eta olishi, zamonning bozor iqtisodiyoti qo'yayotgan talablariga to'la javob bera olishi kerak. Umumiy o'rta-ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish uchun, jumladan uzluksiz matematik ta'lim tizimi jarayoniga yangi texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatini, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarni bilgan tarzda mehnat faoliyatini to'g'ri tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida xizmat ko'rsatishdir. Hozirgi kunda ta'lim, fan va ishlab chiqarishdagi muhim va dolzarb vazifalar kadruga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Barchamizga ma'lumki, rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti eng avvalo zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarida oqilona foydalanish bilan farqlanadi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” o'quv jarayonining ilmiyligi, zamon talablariga mosligi, turmush amaliyot bilan bog'lanishiga asoslangan. Hayot asosi aniqlikka, matematikaga asoslangan ekan, matematika fanini o'qitishdan maqsad, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yetarli bilimga ega bo'lishi uchun baza yaratish, ularni kelgusidagi hayot yo'llarida uchraydigan muammolarini hal etishda mustaqil fikr yuritishlarida asqotadi. Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida





ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi sababli barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talab yana-da oshmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatlarini oshirish va o'quvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyasiga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlarda bo'lganidek, ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997- sonli qarorida eng ustuvor vazifa qilib quyidagilar olindi:

-Xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlari mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

-PISA baholash dasturi yo'nalishidagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish;

-o'quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini yaratish va 2019-2021 yillarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borish. Vazirlar Mahkamasining 997-sonli qarorida quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlar tashkil etilishi nazarda tutib qayd etilgan:


- Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;

- Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;

- The Programme for International Student Assessment (PISA) — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

- The Teaching and Learning International Survey (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun.

2021- yilda O'zbekiston Respublikasi (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash, (PIRLS) — boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash xalqaro dasturlarda ishtirok etadi. Bunday baholash tizimiga bolalarni tayyorlash va ularning tabiiy fanlardan bilimni rivojlantirish uchun esa bugungi kunda yurtimizda STEAM ta'lim dasturi fanga tatbiq qilib kelinmoqda. STEAM nima? S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Bu yo'nalishlar jahon





miqyosida dolzarb sohalar bo'lib kelayotganini bilamiz. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda.

STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. Ta'limdagi ushbu tizimning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot ham nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf doskalarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo talablariga javob bermaydi. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar". STEAM ta'lim tizimi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlashni ham taqozo etadi.

STEAM yo'nalishi muhitida bolalar nafaqat bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrofmuhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta fan bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas. STEAM yondashuvi bizning ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartirishi tabiiy. Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasi deya olamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Qonun usutuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovoniligining garovi". –T.: "O'zbekiston" 2017- y. 48-b.
2. Abdullayeva B.S., Rajabov F., Masharipova S. Oliy matematika asoslari. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2011. 392b.
3. Abdurahmonova N., Axmedov M., Jumayev M., 1-sinfda matematika darslari.O'qituvchi kitobi. Toshkent 2006.- 192 b.

